



UDK: 371.08

Laylo OROMOVA,
Tel: 99 916 7006
E-mail: oromovalaylo1@gmail.com

TDTTrU.f.f.d. prof. J.Ramatov taqrizi asosida

JADIDCHILIK HARAKATINING PEDAGOGIK VA FALSAFIY MEROSI: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI YANGILIKLAR HAMDA MILLIY UYG'ONISH G'OYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakatining pedagogik va falsafiy jihatlarini, ularning O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqining ta'lim-tarbiyasi va milliy uyg'onish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangi maktablar, zamonaviy dars metodikasi, milliy o'zlikni anglash va dunyoviy tafakkurni rivojlantirish g'oyalari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, pedagogika, falsafa, milliy uyg'onish, yangi maktab, isloh, ma'rifat.

PEDAGOGICAL AND PHILOSOPHICAL HERITAGE OF THE JADIDIST MOVEMENT: INNOVATIONS IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND IDEAS OF NATIONAL AWAKENING

Annotation

This article analyzes the pedagogical and philosophical aspects of the jadidism movement, their influence on the educational and educational process of the peoples of Central Asia, in particular the Uzbek people, and on the national awakening process. The ideas of new schools promoted by the jadids, modern lesson methodology, awareness of the national self and the development of secular thought are covered on a scientific basis.

Key words: Jadidism, pedagogy, philosophy, national awakening, new school, reform, enlightenment.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ И ФИЛОСОФСКОЕ НАСЛЕДИЕ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ: ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ, А ТАКЖЕ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические и философские аспекты джадидистского движения, их влияние на процесс образования и национального возрождения народов Средней Азии, в частности узбекского народа. Идеи новых школ, современных методик преподавания, развития национального самосознания и светского мышления, выдвинутые джадидами, получили научное освещение.

Ключевые слова: Джадидизм, педагогика, философия, национальное пробуждение, новая школа, Реформация, просвещение.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati o'zining chuqur ijtimoiy, pedagogik va falsafiy mohiyati bilan mintaq hayotida tub burilish yasadi. Bu harakat millatning ma'naviy uyg'onishi, ilm-fan taraqqiyoti, zamonaviy tafakkurga o'tish yo'lida muhim o'rin yegalladi. Jadidlar, avvalo, ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish orqali jamiyatni yangilashni maqsad qilganlar. Jadidlar – fikr yerkinligi, tanqidiy yondashuv, ilmiy tafakkur, yangicha qarashlarning tarafdorlari bo'lib, bu jihatlar zamonaviy demokratik jamiyatlar uchun muhim tamoyillardir. Ularning asarlarida shunday g'oyalar ilgari suriladi: har bir inson ilmi, tafakkurli bo'lishi kerak; johillikdan chiqish uchun mustaqil o'qish, fikrlash zarur; har bir millat o'z kelajagini o'zi belgilaydi.

Bu g'oyalar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda inson yerkinligi, aqlni ustuvor bilish, ma'naviy mustaqillik tamoyillari bilan uyg'unlashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jadidlar harakati, asosan, o'zbekxalqining ma'rifatparvarlik tarixida muhim o'rin tutadi. Bu harakatning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish, xalqni ma'rifatga chaqirish va zamonaviy bilimlarni kengiriyi yetish yedi. Jadidlar o'z asarlarida ta'limni faqat bilim berish jarayoni deb yemas, balki shaxsni tarbiyalash, uning fikrini rivojlantirish va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash jarayoni sifatida ko'rishgan. Ularning pedagogik qarashlari bir qator muhim

tamoyillarga asoslangan. Jadidlar ta'limda faol o'quvchilarni tarbiyalashga ye'tibor berishgan. O'quvchilarni faqat passiv qabul qiluvchi sifatida yemas, balki faol ishtirokchilar sifatida ko'rish, ularning fikrlarini, g'oyalarini hurmat qilish va ularni o'z fikrlarini ifoda yetishga rag'batlantirish muhim ahamiyatga yega yedi. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam berishi kutilgan. Jadidlar ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llashni maqsad qilishgan. Ular o'z asarlarida o'quv jarayonida muhokama, ijodiy fikrlash va amaliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni tavsiya yetishgan. Bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam berishi kutilgan. Jadidlar tomonidan ishlab chiqilgan darsliklar va metodik qo'llanmalar ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan yedi.

Jadidlar, shuningdek, o'quvchilarni o'z vataniga, xalqiga nisbatan muhabbat va hurmat bilan tarbiyalashni maqsad qilishgan. Bu g'oyalar o'zbekta'limida milliy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan muhim qadam bo'lib xizmat qilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatda ishtirok yetishlari, o'z fikrlarini ifoda yetishlari va jamiyatda o'z o'rmini topishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga yega yedi. XX asr boshlarida O'zbekistonda jadidlar tomonidan yaratilgan boshlang'ich ta'lim darsliklari pedagogik qarashlarning amaliy

ifodasi sifatida xizmat qilgan. Bu darsliklar, avvalo, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirish va ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan yedi. Darsliklar o'z ichiga turli fanlarni, jumladan, til, matematika, tabiatshunoslik va badiiy san'atni olgan. Jadidlar darsliklarida o'quvchilarning fikrini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan ko'plab misollar keltirilgan. Masalan, darsliklarda qiziqarli hikoyalar, she'rlar va badiiy asarlar keltirilgan bo'lib, ularning maqsadi o'quvchilarga yestetik didni rivojlantirish va badiiy fikrni shakllantirish yedi. Jadidlar darsliklarida o'quvchilarga berilgan savollar va topshiriqlar yesa ularning fikrini mustaqil ifoda yetishga yordam berardi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jadidlar asarlaridagi pedagogik qarashlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham o'z ifodasini topgan. Ular ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok yetishga undagan, o'quvchilarning qiziqishlari va yehtiyolariga mos ravishda ta'lim berishga intilgan. Jadidlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishni, ularni o'z qobiliyatlarini va iste'dodlariga qarab tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan. Ularning pedagogik g'oyalari, ta'lim jarayonida ijodiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu yesa o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam bergan. Jadidlar, shuningdek, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ye'tibor berishgan, bu yesa ularning jamiyatda o'z o'rini topishlariga yordam bergan. Jadidlar asarlaridagi pedagogik qarashlar O'zbekiston ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Ularning g'oyalari va amaliyoti bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Jadidlar ta'limi o'zbekxalqining ma'rifatparvarlik tarixida muhim bir sahifa bo'lib, ularning g'oyalari va asarlari hozirgi ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston ta'lim tizimi, jadidlar g'oyalaridan ilhomlanib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga olishi lozim. Bu yesa o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirok yetishga tayyorlash muhim ahamiyatga yega. Jadidlar asarlaridagi pedagogik qarashlar, bugungi ta'lim tizimida o'rganilishi va amalga oshirilishi zarur bo'lgan muhim g'oyalardir.

Jadidlar asarlarida ta'lim va tarbiya o'rtasidagi bog'liqlik alohida ta'kidlangan. Ular ta'lim jarayonida tarbiya masalasiga katta ahamiyat berishgan. Jadidlar fikricha, ta'lim faqat bilim berish yemas, balki shaxsni tarbiyalash, uning axloqiy va yestetik jihatlarini rivojlantirish hamdir. Ularning asarlarida tarbiya jarayoni o'quvchilarning axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy mas'uliyatini va o'zligini rivojlantirishga qaratilgan. Jadidlar ta'lim orqali xalq ongini uyg'otish, milliy va dini qadriyatlarni zamonaviy shaklda qayta baholash tarafdori yedilar. Ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlari hozirgi quyidagi yo'nalishlarga ta'sir ko'rsatgan:

- insonparvarlik va ilg'or fuqarolik g'oyalari;
- ijtimoiy adolat va islohotlar zarurati;
- milliy o'zlik va madaniy merosga hurmat.

Bugungi ijtimoiy-falsafiy tafakkurda bu g'oyalar jamiyatning barqaror rivoji, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, inson huquqlari va demokratiya asoslari sifatida ko'zga tashlanadi.

Jadidlar g'oyaviy jihatdan milliy uyg'onish harakatining asoschilari bo'ldilar. Ularning faoliyati orqali quyidagi ijtimoiy-falsafiy tamoyillar shakllandi:

- milliy g'urur va o'zlikni anglash – xalq o'z tarixini, tilini, madaniyatini anglashi;
- modernizmga ochiqlik – G'arb yutuqlaridan foydalanib, Sharqning an'anaviy qadriyatlarini modernizatsiya qilish;

-muvozanatli islohot – islomiy ye'tiqod va zamonaviy fanni uyg'unlashtirish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Bu g'oyalar bugungi kunda milliy identiklik, gibrid modernizm, madaniyatlararo muloqot tushunchalarida o'z aksini topmoqda. Jadidlar o'z asarlarida davlat va xalq o'rtasidagi mas'uliyatli aloqalarga urg'u berganlar. Bu: davlatning asosiy vazifasi – xalqni ma'rifatli qilish; rahbar – xalq xizmatkori; siyosiy ong – milliy manfaatlar bilan uyg'un bo'lishi kerak.

Zamonaviy siyosiy-falsafiy tafakkurda bu g'oyalar ijtimoiy kontrakt, mas'uliyatli boshqaruv, fuqarolik faolligi nazariyalariga uyg'un keladi.

Bugungi kunda jadidchilik g'oyalari quyidagi sohalarida faol aks yetmoqda:

- Ta'lim: yangi metodlar, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv;
- Ijtimoiy ong: milliy birlik, ijtimoiy adolat, dunyoviy bilimga intilish;
- Madaniyat: an'analar va zamonaviylik uyg'unligi;
- Falsafa: milliy-falsafiy tafakkurni qayta tiklash va rivojlantirish.

XIX asrning adog'i XX asrning boshlarida birgina Turkistonda yemas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakatlarda milliy uyg'onish harakati boshlangan yedi. Ijtimoiy adolatsizlikni yo'qotmoqchi, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lgan fikr kishilari millatning nochor holati va og'ir turmush tarzini o'zgartirish uchun dastlab xalqqa bilim berish kerak, deb hisobladilar. Millatni g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hech narsaga yerishib bo'lmazligi tushunib yetildi. Millatga ma'rifat berish sifat jihatidan ham, sur'at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil yetilishi lozimligi ayon bo'ldi. Faqat ruhga ta'sir yetadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo'lmazligi, fan-texnika asoslarini puxta o'rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o'qitish usullari joriy yetilishi kerak yedi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan ye'tiboran shakllana boshlagan ma'rifatchilik qarashlari XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. "Jadid" so'zi arabcha "yangi" ma'nosini berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Ma'rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g'aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod yetish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo yetish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy- ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905-1907-yillarda bo'lgan 1-rus inqilobi, 1905-1911-yillardagi Yeron inqilobi, 1908-yil Turkiyada bo'lgan yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar o'z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to'planishar yedi. Ularning ko'pchiligi shu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari – shoiru yozuvchilar yedi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910- yillardayoq ma'rifat va ozodlik g'oyalari uning markaziy mavzuiga aylandi.

Adabiyotga “millat” va “vatan” tushunchalari kirib keldi. Milliy she'rlarga rag'bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O'zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti deb davrlashtirildi. Adabiyotdagi bunday uyg'onish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham ro'y berdi.

Jadidlarning konseptual g'oyalari bugungi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy manbai, islohotlar kursining genetik asosi bo'ldi. Ular xalqimiz ma'naviy tafakkurini yangi bosqichga ko'tardi. Jadidlarning falsafiy-axloqiy qarashlari milliy istiqloq g'oyasining muhim taraqqiy bosqichi sifatida xizmat qildi. Bugungi globallashuv sharoitida ham milliy g'oyaga yehtiyoj ortib bormoqda. Shuning uchun jadidlarning ma'rifatparvarlik, fidoyilik va gumanizmga asoslangan qarashlari milliy istiqloq g'oyamizni mustahkamlash, Vatan ravnaqiga xizmat qiladi.

Milliy tariximiz shuni ko'rsatadiki, har bir xalq taraqqiyoti fidoyi vatanparvarlar bilan bog'liq. Konfutsiy, Amir Temur, Mir Alisher Navoiy, al-Farg'oni, al-Xorazmiy, Beruniy, Naqshbandiy, Yassaviy singari buyuklar, shuningdek Behbudiy, Munavvar Qori, Avloniy, Fitrat, Hamza, Qodiriy, Cho'lpon kabi jadid bobolarimiz millat ozodligi yo'lida fidoyilik ko'rsatdilar. Ularning ta'lim-tarbiya va ma'rifat urug'lari bugun biz uchun ibratdir.

Fitrat yozganidek: “Yellik yildan beri yezildik, tahqir yetildik, tilimiz kesildi, yerimiz bosildi, sharafigimiz poymol qilindi. Tizimli turdik, sabr yetdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa butun borlig'imizni berdik.”

Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga da'vat yetdilar. Zero, Abdurauf Fitrat shunday yozgan: “Yey ulug' Turon, arslonlar o'lkasi. Senga na bo'ldi. Dunyoni “Urxavalari” bilan titratgan yo'lbars bolalaring qani. Nechun tovushlari chiqmaydir? Nечun chekindilar? Nечun ketdilar? Kurash maydonlarini o'zgalarga nechun qo'ydilar”.

1990-yillar boshida “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasining ikki sonida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Solih Qosimovning “Behbudiy va jadidchilik”, “Yoshlik” jurnalining 1990 yil 1-sonida yesa taniqli olim Begali Qosimovning “Karvonboshi” sarlavhali maqolalari ye'lon qilindi. Ularda Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Solih Qosimovning maqolasida yetmish yil davomida burjua oqimi sifatida qoralanib kelingan jadidchilik harakati ilk marotaba milliy istiqloq g'oyalari bilan sug'orilgan ma'rifatparvarlik harakati deya ta'riflanib, Turkistonda bu harakatning boshida Mahmudxo'ja Behbudiy turgani asoslab beriladi hamda uning faoliyati ham dunyoviy, ham diniy asoslarga tayangani tahlillar bilan ko'rsatiladi. Mazkur maqolada o'zbek jadid adabiyoti – milliy uyg'onish va istiqloq tafakkuri, jadidchilik harakatining asl maqsadlari haqida fikr yuritiladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, jadidchilarning harakatlari zamirida ma'rifatparvarlik yotadi va buning isboti natijasi o'laroq ko'plab manbalarda ularning yezgulikni, milliy g'oyani targ'ib qiluvchi asosiy dalillari mavjud.

Ismoil Gaspirlining millat ozodligi yo'lidagi fidoyiligi tufayli ko'plar unga millatning otasi deb ta'rif bergan yedilar: Gaspirali ma'rifatparvarlik qarashlarining Turkistondagi davomchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy ustoz haqida shunday degan yedi: u “Rusiyadagi turk- tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo'shlik yo'li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noyil o'ldi”.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Jadidchilik harakati O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Ularning ilg'or pedagogik va falsafiy qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ularning g'oyalari zamonaviy ta'lim islohotlari uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, jadidlar merosini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq yetish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Is'hoqov, S. “Jadidchilik va uning o'zbek madaniyatidagi o'rni.” – Toshkent, 2017.
2. Abdurashidov, M. “O'zbek jadidlari: pedagogik qarashlari.” – Samarqand, 2020.
3. Karimov, I. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.” – Toshkent, 2008.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 10-jild. – Toshkent, 2006.
5. [www.ziyouz.uz].(http://www.ziyouz.uz) – Jadid adabiyoti va tarixiga oid maqolalar.